Törtinçi guruh – **milliy tadqiqotlar.** S. T. Turğunov va R. X. Jörayev maktab direktorining boşqaruv faoliyati nazariyasi va demokratik rahbarlik uslubini yoritgan [27]; L. A. Sultonova boşqaruv kompetentligi körsatkiçlari asosida baholaş mexanizmlarini işlab çiqqan [28]; D. F. Yusupova boşqaruv könikmalarini sinergetik yondaşuv asosida rivojlantiriş mexanizmini taklif etgan [29]; D. M. Kambarova ma'muriyat va pedagogik jamoa hamkorlik modelini taqsimlangan yetakçilik tamoyillari bilan asoslagan [9]; A. A. Ismailov monografiyasida boşqaruv kompetentligining tarixiy şakllanişi va tuzilmasi tahlil qilingan [10].

TADQIQOT METODOLOGİYASİ

Tadqiqotda nazariy tahlil va sintez, qiyosiy-tarixiy tahlil, tuşunçalarni aniqlashtiriş (konseptual tahlil), me'yoriy-huquqiy hujjatlar va öquv dasturi mazmunining kontent-tahlili [7; 8], tizimli modellaştiriş usullari qöllanildi. Qayd etiş lozimki, maqola nazariy-konseptual xarakterda: birlamçi empirik ma'lumot (sörov, eksperiment) töplanmagan, empirik dalillar mavjud xalqaro va milliy tadqiqotlardan olingan, taklif etilgan model esa kelgusida tajriba-sinovda tekşirilişi lozim bölgan gipotezadir.

TAHLİL VA NATİJALAR

1. Yetakçilik tuşunçasining evolyutsiyasi: boşqaruvdan taqsimlangan yetakçilikka

Maktab rahbarining roli tarixan bir neça bosqiçda özgargan. Şarq mutafakkirlari asarlarida rahbarning adolat, bilim, strategik fikrlaş va axloqiy kamolot kabi fazilatlari yoritilgan: Farobiy "Fozil odamlar şahri" asarida hokim uçun ön ikki fazilatni sanagan bölib, ularda şaxsiy xislatlar bilan kasbiy könikmalar aralaş berilgan; Yusuf Xos Hojibning "Qutadğu bilig" asaridagi tört obraz adolat, strategik boşqaruv, bilim va ma'naviy barkamollikni ifodalaydi [10]. Bu qaraşlar rahbarni asosan yakka şaxs sifatida tasvirlaydi.

XX asrda ta'lim boşqaruvi industrial davr ta'sirida samaradorlik, rejalaştiriş va nazoratga yönaltirilgan ma'muriy (administrativ) yondaşuv doirasida rivojlandi [10]. XX asr oxiri va XXI asr boşida esa rahbar administratordan yetakçiga ötdi: 1980-yillardagi samarali maktablar tadqiqotlari doirasida ta'limiy liderlik (instructional leadership) şakllanib, rahbarning öqitiş mazmuni va metodikasini boşqarişdagi roli markaziy öringa çiqdi [10; 21]. Robinson va hammualliflar meta-tahlilida öqitişga bevosita qaratilgan yetakçilik umumiy transformatsion

yondaşuvdan öquvçi natijalariga kuçliroq ta'sir qilişi körsatilgan [22]. Transformatsion yetakçilik esa rahbarning jamoani ilhomlantirişi va özgarişlarga yönaltirişiga urğu beradi.

Bu modellarning umumiy çeklovi – e'tiborning asosan yakka rahbarga qaratilişidir. Taqsimlangan yetakçilik esa tahlil markazini şaxsdan yetakçilik amaliyotiga, ya'ni maktabdagi bir neça kişinin birgalikdagi faoliyatiga ötkazdi [12; 13]. Şunday qilib, evolyutsiyani quyidagiça ifodalaş mumkin: ma'muriy boşqaruv → ta'limiy liderlik → transformatsion yetakçilik → taqsimlangan yetakçilik; bunda keyingi bosqiç avvalgisini inkor etmaydi, balki töldiradi. T. Bush ham turli yondaşuvlarning özaro töldiruvçi ekanini körsatgan [24].

2. Taqsimlangan yetakçilikning mohiyati va delegatsiyadan farqi

Spillane konsepsiyasining mohiyati ikki jihatda ifodalanadi. Birinçisi – "rahbar-plyus" jihat: yetakçilik rasmiy lavozim egasidan taşqari boşqa kişilarni (örinbosarlar, metodik birlaşma rahbarlari, tajribali öqituvçilar) ham qamrab oladi. İkkinçisi – amaliyot jihati: yetakçilik şaxslarning xususiyatidan emas, balki rahbarlar, izdoşlar va vaziyat (reja, qoidalar, vositalar, tuzilma) örtasidagi özaro ta'sirdan yuzaga keladi [11; 12]. Gronn esa yetakçilikni jamoaning birgalikdagi harakati va özaro boğliqligidan paydo böluvçi xususiyat sifatida köradi, bunda hamkorlik spontan, intuitiv va institutsionallaşgan şakllarda namoyon bölişi mumkin [13].

Amaliyotda taqsimlangan yetakçilik köpinça oddiy vakolat topşiriş (delegatsiya) bilan aralaştiriladi. Kambarova modeli ham vakolatlarni topşirişni metodologiyaning özagi deb ta'riflaydi [9]; biroq Spillane va Gronn qaraşlariga tayansak, taqsimlangan yetakçilik delegatsiyadan kengroq tuşunça: u vazifa topşirişni ham, ammo undan taşqari yetakçilikning birgalikda şakllanişini, özaro ta'sirni va yetakçilik tuzilmasini loyihalaşni ham öz içiga oladi [11; 13]. İkki tuşunçaning farqi (1-jadval).

1-jadval: **Delegatsiya va taqsimlangan yetakçilikning qiyosiy tavsifi** [9; 11; 13; 14]

Belgi	Delegatsiya	Taqsimlangan yetakçilik
Tahlil birligi	Rahbar va xodim	Yetakçilik amaliyoti, jamoa va vaziyat
Yönaliş	Yuqoridan pastga, rahbar taşabbusi bilan	İkki tomonlama; taşabbus pastdan ham keladi
Mazmuni	Muayyan vazifa va vakolatni topşiriş	Yetakçilik funksiyalarini tuzilma, vositalar va özaro ta'sir orqali birgalikda amalga oşiriş
Rahbar roli	Topşiruvçi va nazoratçi	Muhit va imkoniyat yaratuvçi, uyğunlaştiruvçi
Mas'uliyat	Asosan rahbarda qoladi	Umumiy, hisobdorlik aniq belgilanadi
Natija	Rahbarning yuklamasi kamayadi	Taşkilotning yetakçilik salohiyati ösadi

Şuningdek, taqsimlangan yetakçilik "hör demokratiya" yoki rahbarning mas'uliyatdan çetlaşişi emas. Kambarova qayd etganidek, haddan taşqari liberal boşqaruv tartibsizlikka olib kelişi mumkin, şu bois strategik masalalarda rahbar mas'uliyati va taktik masalalarda pedagoglar erkinligi örtasida "oltin örtalik" topilişi zarur [9].

3. Metodologik yondaşuvlar tizimi

Taqsimlangan yetakçilikni maktab boşqaruvida asoslaş uçun bir neçta metodologik yondaşuvga tayaniladi (2-jadval). Ularning har biri konsepsiyaning muayyan jihatini oçib beradi.

2-jadval: **Taqsimlangan yetakçilikning metodologik yondaşuvlari** [9; 10; 12; 13; 25]

Yondaşuv	Asosiy ğoya	Maktab boşqaruviga tatbiqi
Tizimli	Maktab yaxlit organizm; boşqaruvçi va ijroçi-ijodkor böğinlar orasidagi uziliş butun tizim samaradorligini pasaytiradi.	Vertikal va gorizontal aloqalarni, rollarning özaro boğliqligini loyihalaş.
Kompetensiyaviy	Kompetentlik bilim, könikma, tajriba, qadriyat va motivatsiyaning integratsiyasi.	Jamoaviy boşqaruv kompetensiyalarini aniqlaş, rivojlantiriş va baholaş.
Faoliyat (amaliyot)	Yetakçilik amaliyotda, vaziyat va vositalar bilan özaro ta'sirda yuzaga keladi.	Tuzilma, qoidalar va jarayonlarni (kengaş, metodik birlaşma) qayta loyihalaş.
Aksionerlik (stakeholder)	Öqituvçi oddiy xodim emas, ta'lim sifatidan bevosita manfaatdor subyekt.	Öqituvçilarni qaror qabul qilişga jalb qiliş, hamkorlik.
Insoniy munosabatlar (E. Mayo)	Samaradorlik psixologik iqlim va rahbar munosabatiga boğliq.	İşonç, muloqot va qöllab-quvvatlovçi muhit.
Örganuvçi taşkilot (P. Senge)	Jamoaviy örganiş va umumiy intellekt.	Professional örganiş hamjamiyatlari, mentorlik.

Qayd etiş lozimki, kompetensiyaviy yondaşuv taqsimlangan yetakçilikni individual rivojlaniş bilan boğlaydi:

yetakçilikni taqsimlaş uçun rahbar ham, jamoa a'zolari ham tegişli kompetensiyalarga ega bölişi lozim. Kompetentlik köp komponentli, dinamik kategoriya sifatida talqin qilinadi, boşqaruv kompetentligi esa menejment texnologiyalari, boşqaruv muloqoti, jamoa va liderlar bilan munosabat hamda strategik va taktik qarorlar qabul qilişni qamrab oladi [10; 30]. Bu nuqtayi nazardan jamoaviy boşqaruv kompetensiyalari taqsimlangan yetakçilikning amaliy "instrumenti", undan foydalaniş esa maktab boşqaruvining metodik asosi sifatida qaraladi.

4. Metodologik tamoyillar

Yuqoridagi yondaşuvlar asosida taqsimlangan yetakçilikni maktab boşqaruviga tatbiq etişning quyidagi metodologik tamoyillarini ajratiş mumkin:

1. **Yetakçilik amaliyotining ustuvorligi tamoyili.** Tahlil va loyihalaş birligi şaxs emas, yetakçilik amaliyoti: kim, qaysi vaziyatda, qanday vosita va qoidalar bilan yetakçilik funksiyasini bajaradi [12].
2. **Vakolat va hisobdorlik birligi.** Har bir taqsimlangan vazifa aniq natija, körsatkiç va hisobdorlik bilan boğlanadi; mas'uliyatsiz erkinlik tartibsizlikka olib keladi [9].
3. **Tajriba va kompetentlikka asoslaniş.** Yetakçilik ierarxik lavozimga emas, vazifaga mos bilim va tajribaga qarab taqsimlanadi; aks holda taqsimlaş notöğri amaliyotni ommalaştirişi mumkin [17].
4. **Uyğunlaştiriş (alignment) tamoyili.** Taqsimlangan yetakçilik maktabning umumiy missiyasi va strategik maqsadlariga muvofiqlaştirilişi kerak; tarqoq va muvofiqlaştirilmagan taqsimot samarasiz bölişi mumkin [15].
5. **"Oltin örtalik" tamoyili.** Strategik masalalarda rahbar mas'uliyati, taktik masalalarda pedagoglar erkinligi muvozanati saqlanadi [9].
6. **İşonç va oçiq muloqot.** İşonç muhiti, fikr-mulohaza va xatoga yöl qöyiş huquqining tan olinişi hamkorlikning şartidir [9].
7. **Uzluksiz rivojlaniş.** Yetakçilik kompetensiyalari bir martalik kursda emas, taşxis, mentorlik, amaliyot va baholaş sikli orqali şakllanadi [8; 26].

5. Maktab boşqaruvida taqsimlangan yetakçilik tuzilmasi

Maktabda yetakçilik quyidagi darajalarda taqsimlanadi:

1) **strategik daraja** – direktor: missiya, strategiya, resurslar, taşqi aloqalar, umumiy hisobdorlik;
2) **operativ-boşqaruv darajasi** – direktor örinbosarlari: ta'lim sifati, tarbiyaviy iş, monitoring;
3) **örta böğin darajasi** – metodik birlaşma rahbarlari, sinf rahbarlari koordinatorlari, loyiha guruhlari rahbarlari: öqitiş metodikasi, baholaş mezonlari, hamkasblar rivoji;
4) **öqituvçi-liderlar darajasi** – tajribali va taşabbuskor öqituvçilar: mentorlik, innovatsiyalar, professional örganiş hamjamiyatlari.

Kambarova modelida muloqot üç yönalişda körsatilgan: vertikal (maqsadlarni yetkaziş), gorizontal (öqituvçilarning özaro tajriba almaşişi, PLC) va diagonal (yoş öqituvçilarning bevosita rahbariyat bilan innovatsion ğoyalar ustida işlaşişi) [9]. Bu yetakçilik tuzilmasi vakolat zanjiridan köra özaro boğliq tarmoqni eslatadi.

Taqsimlaş vositalari sifatida pedagogik kengaş, kuzatuv kengaşi, metodik birlaşmalar, işçi guruhlar, loyiha jamoalari, lavozim yöriqnomalari, hisobot va fikr-mulohaza tizimlari xizmat qiladi. Spillane terminologiyasida bular yetakçilik amaliyotini "şakllantiruvçi vositalar va qoidalar" bölib, ularning loyihalanişi yetakçilik taqsimotining sifatini belgilaydi [12].

6. Empirik dalillar va tanqidiy qaraşlar

Empirik tadqiqotlar taqsimlangan yetakçilik haqida şartli ijobiy, lekin ehtiyotkorlik talab qiluvçi xulosalar beradi.

Birinçidan, hamkorlikdagi yetakçilik maktabning özgarişlarga tayyorlik salohiyatini oşiriş orqali öquvçi natijalariga bilvosita ta'sir körsatişi qayd etilgan [16]; Leytvud va hammualliflarning şarhida ham yetakçilikning köproq kişiga yoyilişi, agar uyğunlaşgan bölsa, samarali ekani ta'kidlangan [15].

İkkinçidan, muvaffaqiyatli direktorlar liderlik strategiyalarini maktab rivojlanişi bosqiçiga moslab, uzoq muddatda bosqiçma-bosqiç qöllaşi aniqlangan [10].

Üçinçidan, rahbarning öqitiş sifatiga qaratilgan faoliyati öquvçi natijalariga kuçli ta'sir qilgani sababli taqsimlangan yetakçilik aynan öqitişni takomillaştirişga yönaltirilganda mazmunli böladi [22].

Tanqidiy qaraşlar quyidagilarda mujassam:

a) tuşunçaning noaniqligi – bir atama turliça amaliyotlarni (delegatsiya, hamkorlik, spontan yetakçilik) anglatadi va bu empirik tadqiqotlarni qiyoslaşni qiyinlaştiradi [19];

b) tajriba va bilim yetişmasa, taqsimlaş notöğri amaliyotni ommalaştirişi mumkin [17];

c) taqsimlangan yetakçilik ritorikasi ierarxik hokimiyatni yaşirişi, şaklan hamkorlik bölib, amalda rasmiy nazorat saqlanişi mumkin [18].

Bu tanqidlar konsepsiyani rad etmaydi, balki uni qöllaş şartlarini aniqlaydi: taqsimlaş maqsadli, kompetensiyaga tayangan, hisobdorlik bilan boğlangan va ölçanadigan bölişi lozim.

7. Özbekiston maktablari konteksti

Huquqiy zamin. Özbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim töğrisida"gi ÖRQ-637-son[1] Qonuni ta'lim taşkilotlarining yuridik şaxs maqomi va taşkiliy mustaqilligini kafolatlaydi [1]; tadqiqot manbalarida bu norma yakka rahbarlik bilan kollegiallik uyğunligi, pedagogik kengaş, kuzatuv kengaşi va metodik birlaşmalar vakolatlari taqsimlangan boşqaruv uçun qonuniy asos bölişi sifatida talqin qilinadi.

Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Özbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgaça rivojlantiriş konsepsiyasini tasdiqlaş töğrisida"gi PF-5712-son[2] Farmoni va Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantiriş böyiça milliy dasturni tasdiqlaş töğrisida"gi PF-134-son[3] Farmoni maktab rahbarlarini zamonaviy menejment asosida tayyorlaş va boşqaruv mustaqilligini kengaytirişni belgilaydi [2; 3]; Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Maktabgaça va maktab ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qöllab-quvvatlaş hamda uzluksiz kasbiy rivojlantiriş tizimini joriy qiliş çora-tadbirlari töğrisida"gi PQ-4963-son[4] qarori, Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrdagi "Davlat umumiy örta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik öquv kurslarida öqitiş va ularga menejerlik sertifikatini beriş tartibi töğrisidagi nizomni tasdiqlaş haqida"gi 681-son[5] qarori va Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgaça va maktab ta'limi taşkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantiriş tizimini takomillaştiriş böyiça qöşimça çora-tadbirlar töğrisida"gi PQ-231-son[6] qarori rahbar kadrlarni tayyorlaş va uzluksiz kasbiy rivojlantiriş tizimini şakllantirgan [4; 5; 6]; 2026-yil 16-apreldagi 144-son buyruq bilan menejerlik kursining takomillaştirilgan dasturi tasdiqlangan [7].

Amaldagi holat. Rajabov tahliliga köra, hujjatlarda liderlik kompetentligi aniq belgilanmagan, funksional fe'llar ustun; menejerlik kursining 144 soatidan liderlik va özgarişlarni boşqarişga bevosita ajratilgan modul atigi 8 soat (5,6 %), jamoani boşqariş va rivojlantirişga 32 soat (22,2 %), rahbarning özini rivojlantirişi va refleksiyaga 8 soat (5,6 %) berilgan; kurs bir martalik, mentorlik va kursdan keyingi qöllab-quvvatlaş hamda 360° baholaş nazarda tutilmagan [7; 8]. Boşqaruv vertikal xarakterga ega, liderlik vakolatlari örinbosarlar va tajribali öqituvçilarga kam taqsimlanadi, metodik birlaşmalar faoliyati köpinça rasmiy [8]. Bu holat OECD tavsiyalariga köra rahbar rivojlanişi tayyorlaş, kiriş davridagi qöllab-quvvatlaş va uzluksiz rivojlantirişni qamrab olgan izçil jarayon bölişi lozimligi bilan ziddiyat hosil qiladi [26].

Demak, Özbekistonda taqsimlangan yetakçilik uçun qonuniy imkoniyat mavjud, ammo (a) uni lavozim vazifalarida ölçanadigan talab sifatida mustahkamlaş, (b) rahbar jamoasining kompetensiyalarini maqsadli rivojlantiriş va (c) natijani jamoa fikri asosida baholaş mexanizmlari yetişmaydi.

8. Konseptual model

Yuqoridagi tahlil asosida taqsimlangan yetakçilikning maktab boşqaruvidagi konseptual modeli taklif etiladi. Modelda tört blok özaro boğlangan:

1) **metodologik asos** – yondaşuvlar va tamoyillar;

2) **taşkiliy-tuzilmaviy blok** – yetakçilik darajalari va vositalari;

3) **kompetensiyaviy blok** – rahbar va jamoaning jamoaviy boşqaruv kompetensiyalari;

4) **baholaş va rivojlaniş bloki** – mezonlar va uzluksiz sikl (3-jadval).

1 https://lex.uz/docs/-5013007
2 https://lex.uz/docs/-4312785
3 https://lex.uz/uz/docs/-6008663
4 https://lex.uz/docs/-5239538
5 https://lex.uz/ru/docs/-6705811
6 https://lex.uz/uz/docs/-6981085

3-jadval: **Taqsimlangan yetakçilikning konseptual modeli bloklari**

Blok	Mazmuni	Maktabdagi namoyon bölişi
Metodologik asos	Tizimli, kompetensiyaviy, amaliyot, aksionerlik, örganuvçi taşkilot yondaşuvlari; 7 ta tamoyil	Maktab rivojlaniş strategiyasi va içki siyosat hujjatlari
Taşkiliy-tuzilmaviy	Strategik, operativ, örta böğin va öqituvçi-lider darajalari; kengaş, metodik birlaşma, loyiha guruhlari	Vakolat taqsimoti xaritasi, yangilangan lavozim yöriqnomalari
Kompetensiyaviy	Vakolat taqsimlaş; jamoaviy qaror qabul qiliş; kouching va muloqot; mentorlik va hamkorlikda öqiş; ta'limiy liderlik; refleksiya	Rahbar jamoasi va metodik birlaşma rahbarlari uçun birgalikdagi öquv va amaliyot
Baholaş va rivojlaniş	Taşxis → individual reja → mentorlik → maktab loyihasi → 360° baholaş; işonç, taşabbuskorlik, nizolarni hal etiş, kadrlar barqarorligi indikatorlari	Sikl natijalari asosida navbatdagi rivojlaniş rejasi

Modelning muhim jihati – kompetensiyaviy blokning taqsimlangan yetakçilik bilan bevosita boğliqligi: tuzilma özgartirilsa-yu, iştirokçilar tegişli könikmalarga ega bölmasa, taqsimlaş formal bölib qoladi [17; 18]. Şu sababli jamoaviy boşqaruv kompetensiyalarini rivojlantiriş metodikasi taqsimlangan yetakçilikni joriy etişning zaruriy şarti sifatida qaraladi. Baholaş uçun liderlikni baholaşning tört mezonli tizimi (motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-texnologik, refleksiv) va işonç indeksi, taşabbuskorlik darajasi, nizolarni hal etiş uslubi hamda kadrlar barqarorligi indikatorlaridan foydalaniş mumkin [8; 9].

9. Tadqiqotning çeklovlari va istiqbollari

Maqola nazariy-konseptual xarakterda bölib, taklif etilgan model empirik tekşirilmagan; 1–3-jadvallar muallifning tahliliy sintezi hisoblanadi. Özbekiston kontekstidagi ayrim xulosalar ikkilamçi manbalarga [8; 9] tayanadi. Kelgusida modelni tanlangan maktablarda tajriba-sinovdan ötkaziş (kiriş va yakuniy taşxis, vakolat taqsimoti xaritasi, 360° baholaş dinamikasi, nazorat guruhi bilan qiyoslaş), şuningdek, taqsimlangan yetakçilikning öquvçi natijalari va öqituvçilar kasbiy rivojiga ta'sirini örganiş maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLİFLAR

Yetakçilik tuşunçasi ma'muriy boşqaruvdan ta'limiy va transformatsion liderlik orqali taqsimlangan yetakçilikka evolyutsion ötgan; taqsimlangan yetakçilik avvalgi yondaşuvlarni inkor etmay, tahlil markazini yakka rahbardan jamoaviy yetakçilik amaliyotiga köçiradi.

Taqsimlangan yetakçilik oddiy delegatsiyadan kengroq: u vazifa topşirişdan taşqari, yetakçilikning rahbar, izdoşlar va vaziyat örtasidagi birgalikdagi şakllanişini va tuzilma hamda vositalarni loyihalaşni öz içiga oladi.

Konsepsiyaning metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy, amaliyotga yönaltirilgan, aksionerlik, insoniy munosabatlar va örganuvçi taşkilot yondaşuvlari taşkil etadi; ularga tayangan yetti metodologik tamoyil ajratildi.

Empirik dalillar konsepsiyaning samaradorligini şartli tasdiqlaydi, tanqidiy qaraşlar esa uning tuşunçaviy noaniqligi, kompetensiyaga boğliqligi va hokimiyat munosabatlari xavfini körsatadi; şu bois taqsimlaş maqsadli, kompetensiyaga tayangan va hisobdorlik bilan uyğunlaşgan bölişi lozim.

Özbekistonda taqsimlangan yetakçilik uçun qonuniy zamin mavjud, ammo lavozim vazifalarida liderlikning aniq belgilanmaganligi, malaka oşirişda liderlikka ajratilgan soatlarning kamligi, kursdan keyingi qöllab-quvvatlaş va 360° baholaş yöqligi amaliy joriy etişga tösqinlik qilmoqda.

Taklif etilgan tört blokli konseptual model (metodologik asos, taşkiliy-tuzilma, kompetensiyalar, baholaş va rivojlaniş sikli) taqsimlangan yetakçilikni jamoaviy boşqaruv kompetensiyalarini rivojlantiriş bilan boğlaydi va tajriba-sinov orqali tekşirilişi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar röyxati:

1. Özbekiston Respublikasining "Ta'lim töğrisida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, ÖRQ-637-son[7].
2. Özbekiston Respublikasi Prezidentining "Özbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgaça rivojlantiriş konsepsiyasini tasdiqlaş töğrisida"gi Farmoni. 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son [8].
3. Özbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantiriş böyiça milliy dasturni tasdiqlaş töğrisida"gi Farmoni. 2022-yil 11-may, PF-134-son[9].
4. Özbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgaça va maktab ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qöllab-quvvatlaş hamda uzluksiz kasbiy rivojlaniş tizimini joriy qiliş çora-tadbirlari töğrisida"gi qarori. 2021-yil 25-yanvar, PQ-4963-son [10].

7 https://lex.uz/docs/-5013007
8 https://lex.uz/docs/-4312785
9 https://lex.uz/uz/docs/-6008663
10 https://lex.uz/docs/-5239538

5. Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat umumiy örta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik öquv kurslarida öqitiş va ularga menejerlik sertifikatini beriş tartibi töğrisidagi nizomni tasdiqlaş haqida"gi qarori. 2023-yil 25-dekabr, 681-son[11]
6. Özbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgaça va maktab ta'limi taşkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantiriş tizimini takomillaştiriş böyiça qöşimça çora-tadbirlar töğrisida"gi qarori. 2024-yil 21-iyun, PQ-231-son[12]
7. Özbekiston Respublikasi Maktabgaça va maktab ta'limi vazirining "Davlat umumiy örta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlar uçun menejerlik öquv kurslarining takomillaştirilgan öquv reja va dasturini tasdiqlaş töğrisida"gi buyruği. 2026-yil 16-aprel, 144-son. Toşkent: A. Avloniy nomidagi PMMI, 2026.
8. Rajabov K. K. Umumta'lim maktab direktorlarining liderlik kompetentligini rivojlantirişning amaldagi holati: muammolar va yeçim yönalişlari // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. 2026. T. 10, № 2. B. 176–181.
9. Kambarova D. M. Ta'lim muassasalarida liderlik va boşqaruv: pedagogik jamoa hamda ma'muriyat örtasidagi hamkorlik modelining nazariy-metodologik asoslari // Development of Science. 2026. Vol. 4, Issue 5. B. 162–166.
10. Ismailov A. Maktab rahbarlarining boşqaruv kompetensiyalarini rivojlantiriş orqali ta'lim sifatini oşiriş strategiyalari: monografiya. Toşkent: Ijod naşr, 2026. 160 b.
11. Spillane J. P. Distributed Leadership. San Francisco: Jossey-Bass, 2006.
12. Spillane J. P., Halverson R., Diamond J. B. Towards a theory of leadership practice: a distributed perspective // Journal of Curriculum Studies. 2004. Vol. 36, No. 1. P. 3–34.
13. Gronn P. Distributed leadership as a unit of analysis // The Leadership Quarterly. 2002. Vol. 13, No. 4. P. 423–451.
14. Harris A. Distributed School Leadership: Developing Tomorrow's Leaders. London: Routledge, 2008.
15. Leithwood K., Mascall B., Strauss T. (eds.). Distributed Leadership According to the Evidence. New York: Routledge, 2009.
16. Hallinger P., Heck R. H. Collaborative leadership and school improvement: understanding the impact on school capacity and student learning // School Leadership & Management. 2010. Vol. 30, No. 2. P. 95–110.
17. Timperley H. S. Distributed leadership: developing theory from practice // Journal of Curriculum Studies. 2005. Vol. 37, No. 4. P. 395–420.
18. Lumby J. Distributed leadership: the uses and abuses of power // Educational Management Administration & Leadership. 2013. Vol. 41, No. 5. P. 581–597.
19. Bolden R. Distributed leadership in organizations: a review of theory and research // International Journal of Management Reviews. 2011. Vol. 13, No. 3. P. 251–269.
20. Fullan M. The Principal: Three Keys to Maximizing Impact. San Francisco: Jossey-Bass, 2014.
21. Hallinger P. Leadership for learning: lessons from 40 years of empirical research // Journal of Educational Administration. 2011. Vol. 49, No. 2. P. 125–142.
22. Robinson V. M. J., Lloyd C. A., Rowe K. J. The impact of leadership on student outcomes: an analysis of the differential effects of leadership types // Educational Administration Quarterly. 2008. Vol. 44, No. 5. P. 635–674.
23. Leithwood K., Harris A., Hopkins D. Seven strong claims about successful school leadership revisited // School Leadership & Management. 2020. Vol. 40, No. 1. P. 5–22.
24. Bush T. Theories of Educational Leadership and Management. 5th ed. London: SAGE, 2020.
25. Senge P. M. The Fifth Discipline: The Art & Practice of The Learning Organization. New York: Doubleday/Currency, 2006.
26. Pont B., Nusche D., Moorman H. Improving School Leadership. Volume 1: Policy and Practice. Paris: OECD, 2008.
27. Turğunov S. T., Jörayev R. X. Ta'lim muassasalari rahbarlarining boşqaruv mahorati nazariyasi va amaliyoti. Toşkent: Fan, 2012.
28. Jörayev R. X., Turğunov S. T. Ta'lim menejmenti. Toşkent: Voris-Naşriyot, 2006.
29. Sultonova L. A. Umumiy örta ta'lim maktab direktorlarining boşqaruv faoliyatini baholaş mexanizmlarini takomillaştiriş: PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Toşkent, 2025.
30. Yusupova D. F. Maktab direktorlarining boşqaruv könikmalarini sinergetik yondaşuv asosida rivojlantirişning innovatsion mexanizmi // Ta'limda innovatsiyalar, investitsiyalar va intellektual salohiyat: xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Navoiy, 2026. B. 15–19.
31. Chow T. W., Singh H. Cultivating emerging leadership competencies for individual and organizational success // Annals of Management and Organization Research. 2023. Vol. 4, No. 2.

11 https://lex.uz/ru/docs/-6705811
12 https://lex.uz/uz/docs/-6981085

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.